TEST VARIANTI RAQAMI: **1954900**

TARIX

Ushbu test varianti 30 ta test topshirig‘idan iborat. Uni bajarishga 1 soat vaqt belgilash tavsiya etiladi. Natijani bilish uchun javoblaringizni javoblar varaqasiga belgilab, rasmini **@dtmxizmatbot** orqali jo‘nating. Sizga omad tilaymiz!

TEST VARIANTI RAQAMINI JAVOBLAR VARAQASIGA TO‘G‘RI KO‘CHIRING!



1. Quyidagilar orasidan Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlarining ikkinchi bosqichi davrida bosib olingan shaharni belgilang.
A) *Xiva* B) *Turkiston* C) *Andijon*
D) *Xo‘jand*

2. Abul Abbos Saffoh taxtga o‘tirgan yilda quyidagi qaysi hududda abbosiylarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi?
A) *Buxoro* B) *Samarqand* C) *Xorazm*
D) *Shosh*

3. Toshkentda to‘rt hokimlik tugatilgan yilni toping.
A) *1723-yil* B) *1803-yil* C) *1784-yil*
D) *1780-yil*

4. Quyida keltirilgan qaysi asarlarda Jaloliddin Manguberdi haqida ma’lumotlar berilgan.
1) "Al-Komil fit-tarix"; 2) "Al-Mufassal";
3) "Tarixi jahonkusho"; 4) Ravzat us-safo";
5) "Firdavs ul-iqbol"; 6) "Tarixi arba ulus"
A) *1, 2, 4, 6* B) *2, 3, 4, 5* C) *1, 4, 5, 6*
D) *1, 3, 4, 6*

5. Qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biri Berdaq o‘zining qaysi she’rlarida mehnatkash xalqning o‘g‘ir hayotini, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligini ifodalagan?
A) *"O‘g‘limga", "Ahmoq bo‘lma", "Soliq"*
B) *"Umrim", "Soliq", "Bo‘lgan emas"*
C) *"Bo‘lgan emas", "Xalq uchun", "Soliq"*
D) *"Xalq uchun", "Umrim", "Ahmoq bo‘lma"*

6. Qoraqalpoqlarning alohida bir xalq bo‘lganligi haqidagi manbalar qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
A) *XVII asr o‘rtalariga* B) *XVI asr oxirlariga*
C) *XV asr oxirlariga* D) *XVI asr boshlariga*

7. Quyida berilganlardan qaysi biri XVII asrda Angliya tarixida sodir bo‘lgan?
A) *parlament vakolatining 6 yil qilib belgilanishi*
B) *reformatsiya*
C) *respublika tuzumining o‘rnatilishi*
D) *sanoat to‘ntarishining tugallanishi*

8. Qaysi tarixiy davrda odamlar qarindoshlardan tarkib topgan ixcham guruhlarga-urug‘ jamoalariga birlashdilar?
A) *So‘nggi paleolit* B) *O‘rta paleolit*
C) *Ilk paleolit* D) *Bronza*

9. IX asrda Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o‘rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahbarlik qilgan vatandoshimizni toping.
A) *al-Xorazmiy* B) *az-Zamaxshariy*
C) *al-Farg‘oniy* D) *al-Moturidiy*

10. Rossiya 1904-1905-yillarda qaysi davlat bilan urush harakatlarini olib borgan?
A) *Buyuk Britaniya* B) *Avstriya-Vengriya*
C) *Turkiya* D) *Yaponiya*

11. 1454-1512-yillarda yashagan dengizchi va astronomni toping.
A) *F.Magellan* B) *X.Kolumb*
C) *M.Valdzemuller* D) *A.Vespuchchi*

© Davlat test markazi, 2019

12. Rus qo‘shinlari tomonidan 1865-yilda Toshkent bosib olingach, M.Chernyayev xalqaro doirada o‘z hatti-harakatlarini oqlash maqsadida shahar oqsoqollaridan shaharni "ixtiyoriy ravishda topshirish" to‘g‘risidagi sulhni imzolashga majburlaganda, bu sulhga necha nafar oqsoqol imzo qo‘ygan?

A) *6 nafar* B) *4 nafar* C) *15 nafar*
D) *9 nafar*

13. Quyidagi voqealar to‘g‘ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni toping.
1) Zardusht va’zlari matnlarining hammasi 21ta kitobga jamlandi; 2) Xitoyda "Sariq ro‘mollilar" qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tdi;
3) Salavkiylar davlati tashkil topdi;
4) Yunonistonda Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish to‘xtatildi

A) *3, 1, 2, 4* B) *1, 2, 3, 4* C) *2, 1, 3, 4*
D) *4, 3, 1, 2*

14. Quyidagi qo‘zg‘olonlar boshlangan yillariga qarab to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda berilgan javobni aniqlang.
1)Taypinlar qo‘zg‘oloni; 2) Sipohilar qo‘zg‘oloni; 3) Dekabristlar qo‘zg‘oloni; 4) Lion to‘quvchilarining qo‘zg‘oloni; 5) Bobiylar qo‘zg‘oloni.

A) *4, 3, 5, 2, 1* B) *3, 5, 4, 1, 2*
C) *4, 3, 1, 2, 5* D) *3, 4, 5, 1, 2*

15. Italiyada yangi konstitutsiya kuchga kirgan yilni belgilang.

A) *1950-yil* B) *1948-yil* C) *1946-yil*
D) *1955-yil*

16. Quyidagilardan Fransiya qiroli Filipp IV ning hukmronligi tugagan yilda sodir bo‘lgan voqealarni aniqlang.
1) Tampliyerlar ordenining buyuk magistri o‘limga mahkum etildi; 2) Mali hukmdori Sundiata Keytning hukmronligi boshlandi;
3) Oltin O‘rdada O‘zbekxon islomni davlat dini deb e’lon qildi; 4) Germaniya knyazlari Rudolf Gabsburgni taxtga o‘tqazdilar

A) *1, 4* B) *1, 3* C) *2, 3* D) *1, 2*

17. O‘zbekiston Kommunistik(bolsheviklar) partiyasi tuzilgan yilni belgilang.

A) *1922-yil* B) *1920-yil* C) *1927-yil*
D) *1925-yil*

18. 2002-yilda (a) va 2010-yilda (b) BMT Bosh Kotibi lavozimida faoliyat yuritgan shaxslarni aniqlang.
1) K.Anann; 2) F.Mayor; 3) Pan Gi Mun; 4) Li Pen

A) *a-1, b-3* B) *a-3, b-4* C) *a-1, b-4*
D) *a-2, b-3*

19. O‘rta asrlarda yuz yillik urushdagi qaysi jangdan so‘ng Fransiya hududining yarmi Angliya qo‘liga otib, cherkov va ruhoniylar ingliz qirolini tan olganlar?

A) *Puate jangi* B) *Azenkur jangi*
C) *Kresi jangi* D) *Kompen qal’asi uchun jang*

20. Rasmda tasvirlangan, insonlarni o‘rab turgan olamni sahna, odamlarni esa aktyorlar deb tasavvur qilgan ijodkor qalamiga mansub asar nomini belgilang.

A) *"Don Kixot"* B) *"Qirol Lir"*
C) *"Robinzon Kruzo sarguzashtlari"*
D) *"Gulliverning sayohatlari"*

21. To‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni toping.

A) *1870-yil 10-mayda Gamburg shahrida Germaniya va Fransiya o‘rtasida shartnoma imzolandi.*

B) *1871-yilda Parij Kommunasi general Troshyu boshchiligidagi hukumat tomonidan tor-mor etildi.*

C) *Fransiyada Parij Kommunasi davrida ishsizlarni ish bilan ta’minlash idorasi tuzildi.*

D) *1870-yilda Otto fon Bismark Germaniya imperiyasi kansleri lavozimini egalladi.*

22. Italiya Germaniya-Yaponiya imzolagan "Antikomintern pakti"ga nechanchi yilda qo‘shilgan?

A) *1939-yilda* B) *1937-yilda* C) *1927-yilda*
D) *1930-yilda*

© Davlat test markazi, 2019

23. Germaniya Avstriya-Vengriya ittifoqi tuzilgan yilda bo‘lib o‘tgan voqeani aniqlang.

A) *Berlin kongressi bo‘lib o‘tdi.*

B) *Yaponiya Ryukyu orolini bosib oldi.*

C) *Eronda "Shahanshohbank" ochildi.*

D) *Xitoyda "Ixetuan" harakati qo‘zg‘olonga aylandi.*

24. Xaritada nechanchi raqam ostida berilgan hudud (davlat) ning mahalliy aholisi va mamluk jangchilari Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuz qo‘shiniga qarshi kurashda qatnashgan? (XVIII-XIX asrlar chegarasi)



A) *2* B) *4* C) *3* D) *1*

25. To‘g‘ri ma’lumotlar berilgan javobni toping.
1) XIX asr 90-yillarida Buyuk Britaniya Xitoyning Yunan viloyatini egallab oldi;
2) XIX asr oxiri – XX asr boshida Xitoy milliy burjuaziyaning ko‘pchiligi kompradorlardan iborat edi; 3) 1896-yilda "Ixetuan" harakati qo‘zg‘olon tusini oldi; 4) Xitoyning 1894-1895-yillardagi Yaponiya bilan urushda mag‘lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko‘proq talashlari, asoratga solishlariga sabab bo‘ldi;
5) XVIII asrning so‘nggi choragida Shimoliy Xitoyda birinchi temir yo‘l ishga tushirildi;
6) 1884-yilda Xitoy Markaziy Vyetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi.

A) *2, 3, 6* B) *1, 3, 5* C) *1, 4, 5* D) *2, 4, 6*

26. Songailar hukmdori Almi Mali qo‘shinlarini yengib, poytaxti Gao bo‘lgan mustaqil davlat tuzgan asrda bo‘lib o‘tgan voqeani toping.

A) *Inklar Urubamba daryosi havzasida Kusko shahriga asos soldilar.*

B) *Mali inqirozga uchrab, butunlay parchalanib ketdi.*

C) *Mali davlati feodal tarqoqlik, sulolaviy nizolar natijasida zaiflashdi.*

D) *Mo‘g‘ullar davlati tashkil topdi.*

27. Buyuk Britaniyada leyboristlar partiyasi birinchi marta hukumat tuzgan yilni belgilang.

A) *1924-yil* B) *1940-yil* C) *1918-yil* D) *1936-yil*

28. Kushonlar davriga oid bo‘lgan qaysi yodgorliklardagi buddaviylik ibodatxonalaridan o‘sha davr devoriy tasvirlar va haykaltaroshlikning yuksak san’at namunalari topib o‘rganilgan?

A) *Surxko‘tal, Dalvarzintepa, Zamonbobo*

B) *Surxko‘tal, Zartepa, Teshiktosh*

C) *Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa*

D) *Xolchayon, Jarqo‘ton, Fayoztepa*

29. Nechanchi yilda O‘zbekiston Respublikasida "Sudlar to‘g‘risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilingan?

A) *2002-yilda* B) *1999-yilda* C) *2003-yilda* D) *2000-yilda*

© Davlat test markazi, 2019

30. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar bir-biriga mos ravishda berilgan?

№	Hukmdor	Voqea	Yil
1.	Somoniy hukmdor Nuh II	Horun Bug'roxon boshchiligidagi qoraxoniylar Movarounnahrga hujum qildi	992
2.	Xalifa Muoviya I	Arablar Marv shahrini jangsiz egalladi	651
3.	Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi	Mo'g'ullar Urganch shahrini egalladi	1219
4.	Turkiya sultoni Boyazid II	Ismoil Safaviy qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi	1514
5.	Afg'oniston hukmdori Temurshoh	Amudaryoning janubida yashovchi o'zbeklar afg'onlar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar	1789
6.	Rossiya hukmdori Yekaterina II	Qrim xonligi qo'shini tor-mor etildi va Rossiya tarkibiga qo'shib olindi	1783

A) *2, 4, 6*

B) *2, 3, 4*

C) *1, 3, 5*

D) *1, 5, 6*

Test varianti "Test topshiriqlari to'plami 2019" asosida shakllantirilgan:

1 – 43-bet 35	7 – 67-bet 37	13 – 13-bet 69	19 – 58-bet 53	25 – 90-bet 133
2 – 23-bet 45	8 – 8-bet 14	14 – 74-bet 87	20 – 111-bet 7	26 – 57-bet 36
3 – 40-bet 96	9 – 20-bet 20	15 – 91-bet 6	21 – 84-bet 94	27 – 92-bet 9
4 – 25-bet 69	10 – 77-bet 23	16 – 62-bet 86	22 – 95-bet 56	28 – 8-bet 16
5 – 31-bet 2	11 – 65-bet 14	17 – 46-bet 6	23 – 79-bet 48	29 – 50-bet 16
6 – 38-bet 80	12 – 44-bet 40	18 – 53-bet 53	24 – 99-bet 2	30 – 123-bet 26

© Davlat test markazi, 2019